

Abduraxmanov Aziz Abduxaliquovich

Jizza Politexnika instituti dotsenti.

**SUYUQLIKLARINING MIQDORINI O'LCHASHDA MOYLASH,
SOVITISH VA KESUVCHANLIK XUSUSIYATLARINI TAJRIBA
SINOVLARNI STANDARTLASHTIRISH.**

Annotatsiya. Moylash sovitish suyuqliklari kesuvchanlik va yog'lash xususiyatlari bo'yicha ko'proq ma'lumot olish mumkin bo'lgan operatsiyalar bizning qarashlarimiz bo'yicha quyidagilarda amalga oshiriladi, masalan: parmalash, zenkerlash, silliqlash, rezba ochish.

Kalit so'zlar: moylash-sovitish suyuqligi, yog'li, operatsiya, kesish kuchi, detal, stanok, kesish jarayoni, shpindel, kesuvchi asbob, qo'shimcha.

Abdurakhmanov Aziz Abdukhalikovich
Associate professor of Jizza Polytechnic Institute.

**STANDARDIZATION OF EXPERIMENTAL TESTS OF LUBRICATION,
COOLING AND CROSS-SECTIONAL PROPERTIES WHEN
MEASURING THE QUANTITY OF THEIR LIQUIDS.**

Annotation. Operations in which more information can be found on the properties of lubricating cooling liquids cross-section and lubrication are carried out in the following according to our views, for example: drilling, zenkerization, grinding, rubber opening.

Keywords: lubrication-cooling fluid, oil, operation, cutting force, detail, tin, cutting process, spindle, cutting tool, additive.

Kirish. Metal kesuvchi stanoklarda moylash-sovitish suyuqliklari I-12A sinovlarida ularning kesuvchanlik va yog'lash xususiyatlarini o'zgarishlarini ko'rsatish qiyin, chunki ikkala xususiyat ham kesish kuchini pasayishiga olib keladi. Ularning farqi shundaki, moylash-sovitish suyuqliklarining kesuvchanlik xususiyati ishlov berilayotgan metalning o'ta yupqa yuza qatlamlarini mustaxkamligi pasayishi xisobiga kesish jarayonini osonlashtiradi,


yog‘lash esa kesuvchi asbob va detal orasidagi ishqalanish kuchi kamayishi xisobiga. Moylash sovitish suyuqliklari kesuvchanlik va yog‘lash xususiyatlari bo‘yicha ko‘proq ma’lumot olish mumkin bo‘lgan operatsiyalar bizning qarashlarimiz bo‘yicha quyidagilarda amalga oshiriladi, masalan: parmalash, zenkerlash, sillqlash, rezba ochish.

Tajriba sinovida bir litrdan kamroq moylash-sovitish suyuqliklaridan foydalanib, tajriba sinov o‘tkazish mumkin bo‘lgan va moylash-sovitish suyuqliklarining kesuvchanlik va yog‘lash xususiyatlariga natijaviy baho berish imkoniyatini beradigan stanokdan foydalanildi. Stanok 1A135 tik-parmalash stanogi stoliga o‘rnatildi.

Moylash-sovitish suyuqliklari 5 ichiga ishlov beriladigan detal o‘rnatilgan silindrik 1-1,5 litirli idishga quyiladi. Silindr 3, kesish kuchlari R_x , R_u , R_2 va aylantiruvchi moment M_k ni milliy ampermetr 8 yordamida ko‘rsatuvchi tenzometrik dinamometr 6, stoliga o‘rnatiladi. Moylash-sovitish suyuqliklarining kesuvchanlik qobiliyatiga baho berish parmani 2 detal teshigi 4 ni yuk 7 yordamida hosil qilingan kesuvchi asbob o‘qi bo‘ylab yo‘nalgan o‘zgarmas kuch tasirida parmalashdagi bir minutdagi uzatish miqdori bo‘yicha amalga oshiriladi.


Barcha namunalar bir xil sim chiviqlaridan tayyorlangan. Sinov natijalarning bir xilligini ta’minlash maqsadida barcha namunalar bir xil chuqurlikda markazlashtirilgan. Parmaning ish jarayonida o‘tmaslashishi kesish kuchi ortiradi, bu xatolikni baxolash uchun, birinchi o‘tkazilgan moylash-sovitish suyuqliklarini kesuvchanlik qobiliyatini aniqlash bo‘yicha tajriba sinovlari barcha sinovlvr so‘ngida qayta o‘tkazildi. Bunda parmalash vaqt qanchaga ortganligi aniqlandi. Xisoblar shuni ko‘rsatdiki o‘lchashdagi xatoliklar 2%dan ortmaydi.

1-rasmda sinov natijalari keltirilgan. Ular shuni ko‘rsatdiki yog‘lida parmani maksimal uzatish kuzatildi, suvda-minimal. Demak asbob-detali kontakt yuzasida yog‘ ishqalanish kuchi kamyishini taminlaydi, bu natijalar shunga bog‘liq.



1- rasm. Moylash sovitish suyuqliklarining o'lchashda kesuvchanlikni va yog'lash xususiyatlarini baxolash.

Ishqalanishga qarshi polimer xosil qiluvchi qo'shimcha kesish jarayonini qiyinlashtiruvchi ximoya plyonkalari xosil qiladi. Suvdan foydalanilganda shpindelning bir aylanishiga parmani eng kichik uzatishi to'g'ri kelgan. Bu havoda ishlov berishga nisbatan kesish zonasida oksidlanish jarayoni sekinlashishi bilan bog'liq.



Xulosalar. Maxsus moylash sovitish suyuqliklari kesuvchanlik va yog'lash xususiyatlari tadqiqotlari o'tkazildi. Oz miqdordagi (bir necha o'n gram) yangi qo'shimchalardan foydalanib, o'tkazilgan sinovlar asosida moylash-sovitish

suyuqliklarining sex sharoitlarida sinashga ruxsat etilgan optiml tarkibi tanlandi. Emulsiyani (aralashmani) turg‘unligi o‘zgarmas xolatga va turg‘unlikni oshirish imkonini beruvchi mexanik aktivlashtirgichning konstruksiyasi ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Пулатов Ш.Й. Структурно-функциональное моделирование технологических систем машиностроения. -Т.:—Fan va texnologiya, 2016.- 208
2. Шертайлаков Гайрат Муродович, старший преподаватель; Каримов Шавкат, старший преподаватель; Абдурахманов Азиз Абдухаликович, ассистент; Кудратова Гульноза Тохировна Комментарий к номеру "Молодой учёный". № 6 (140) vi. февраль 2017 г. ISSN 2072-0297.
3. Абдурахманов А. А. «Экономика и общество» №10(89) 2021 www.iupr.ru роль стандартизации и повышения качества продукции.
4. Абдурахманов Азиз Абдухаликович. оценка неопределенности измерений в цифровую эру//академический исследовательский журналі-7.4 январь 2023 том 1 выпуск.
5. Мухаммадиев Б. С. МАШИНАСОЗЛИКДА ЗАМОНАВИЙ ЎЛЧАШ АСБОБЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ ЖАРАЁНИ //SO ‘NGI ILMUY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2024. – Т. 7. – №. 6. – С. 149-154.
6. Мухаммадиев Б. С. ПРЕОБРАЗОВАНИЯ МЕХАНИЧЕСКИХ НАПРЯЖЕНИЙ С ПОМОЩЬЮ ДАТЧИКОВ В РАЗЛИЧНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2024. – Т. 4. – №. 40. – С. 203-210.
7. Мухаммадиев Б. С. ВИДЫ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ МЕХАНИЧЕСКИХ ВЕЛИЧИН //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 53. – №. 4. – С. 18-23.
8. Saparovich M. B., Akbarovna K. M. O'LCHASH ISHLARIDA INTELLEKTUAL DATCHIKLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN

THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – T. 3. – №. 28. – C. 48-55.